

BASIC CONCEPTS IN BIOLOGY AND ITS TEACHING

Tukhtaboyeva Sayyora Abdulkorievna

FarDU Academic Lyceum of Biology
Science teacher

Annotation: The article provides insights and recommendations on the science of biology and its teaching, instructions for students to easily master the science.

Keywords: Science, system, basis, biology, zoology, process, activity, knowledge

Annotatsiya : Maqolada biologiya fani va uni o'qitish borasida tushuncha va tavsiyalar ,fanni o'quvchilarga oson o'zlashtirishlari uchun yo'riqnomalar berib o'tilgan .

Kalit so'zlar : Fan ,tizim, asos, biologiya ,zoollogiya , jarayon, faoliyat ,bilim .

O'qitish jarayoni deganda, o'quvchilarning muayyan o'quv materialini o'zlashtirish, bilish usullarini egallashga qaratilgan o'quv-bilish faoliyati va o'qituvchining mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarishga asoslangan pedagogik faoliyati orqali o'zaro hamkorlikda o'quv maqsadlariga erishiladigan jarayon tushuniladi.

O'qitish jarayoni tashkil etiladigan va boshqariladigan jarayon ekan, u qanday shakllarda tashkil etiladi degan savol tug'iladi? Didaktika va biologiya o'qitish metodikasiga oid manbalarda o'qitish jarayoni va uning shakllariga turlicha ta'rif berilgan. Jumladan, didakt olim YU.K.Babanskiy fikricha, o'qitishni tashkil etish shakllari ta'lif-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan individual yoki yalpi o'qitishning nisbati, o'quv-bilish faoliyatining faollik darajasi, hamkorlikda tashkil etilgan o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati va o'qituvchining rahbarlik roli, pedagogik faoliyatining me'yorini belgilaydi. B.P.Esipov tomonidan chop etilgan "Osnovy didaktiki" kitobida o'quv ishlarini tashkil etish shakllari o'quvchilarning bilish faoliyati turlarining ketmektejligi, o'qituvchining mazkur faoliyatni boshqarish usullari, mashg'ulotlarning mazmuni, tarkibi va vaqtini belgilaydi deb uqtirilgan. N.M.Verzilin, V.M.Korsunskaya ta'rifi bo'yicha o'qitish jarayonini tashkil etish shakllari – o'qituvchi tomonidan tarbiyalovchi ta'lif jarayonida foydalilaniladigan turli sharoit (biologiya o'quv xonasi, ekskursiya, tirik tabiat burchagi, tabiat)da o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish tushuniladi.o'qitish metodikasida o'qitish jarayonini tashkil etishning turli shakllari belgilangan. Ularga dastur talablarini amalga oshiradigan o'qitishning asosiy shakli bo'lgan dars, unga bog'liq holda ekskursiyalar, uy ishlari, darsdan tashqari ishlar va ixtiyoriy ravishda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar kiradi.

Mazkur o'qitish shakllari birgalikda biologiya o'qitish shakllari tizimini tashkil etadi. O'qitishning asosiy shakli bo'lgan – dars, ularni bog'lovchi vazifasini bajaradi va o'qitishda etakchi o'rinni egallaydi. Dars, ekskursiyalar, uy ishlari, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar birgalikda biologiyani o'qitishdan ko'zda tutilgan umumiy o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlaydi, o'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish, olingan natijalarni tahlil qilishga xizmat qiladi. O'qitishni tashkil etish tizimining tarkibiy qismlari bo'lgan dars, ekskursiya, uy ishlari, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari

mashg'ulotlarning har biri biologik ta'lif oldiga qo'yilgan umumiyligi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan alohida o'z ulushi mavjud. Mazkur ulushni xususiy maqsadlar ham deyish mumkin. O'qitish jarayonini tashkil etishning turli shakllarida ta'lif mazmuni, maqsadi, vazifasiga bog'liq holda muayyan metod va vositalardan foydalaniladi. SHu sababli o'qituvchi tomonidan o'qitish shakllarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni ta'lif mazmuni, mazkur shakllarning maqsadi, vazifasi, ta'lif tarbiya jarayonida tutgan o'rni, ularning xususiy maqsadlariga mosligi e'tiborga

olinishi lozim. Masalan, o'rganiladigan mavzu kattalashtiruvchi asboblar yoki laboratoriya jihozlari bilan bog'liq, shuningdek, anatomik mazmun, fiziologik jarayonlar, nazariya, g'oya, tushunchalar, qonunlar, masala echish o'rganiladigan bo'lsa, unda albatta o'qitishning asosiy shakli bo'lgan darsni tanlash zarur. Agar ta'lif mazmuni o'simlik yoki hayvonot dunyosining xilma-xilligi, turli ekologik muhit sharoitiga moslashishini o'rganishni talab etsa, bu holda ekskursiya tashkil etilishi yoki videofilmlar namoyish qilish maqsadga muvofiq.

Ekologik tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirishda dars bilan bir qatorda, darsdan va sinfdan tashqari ishlar ham muhim o'rinni tutadi. Kuzatish o'tkazish va tajriba qo'yishda uy ishlari, darsdan va sinfdan tashqari ishlar muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi tomonidan o'qitish shakllarini to'g'ri tanlashda biologiya o'quv xonasining jihozlanishi va o'quv-moddiy texnika bazasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'qitish shakllarining maqsadi va vazifalatini oson o'zlashtirish imkonini beradi. Bilimlarni olishda rasmlar katta ahamiyatga ega bo'ladi.

O'quvchilar faqat og'zaki javob berib qolmay, balki ayrim gullarning, hayvonlarning va ularning organlarining tuzilishini, ularni jadvalda ifodalashni ham bilishlari kerak. SHuningdek, ular qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, moddalar almashinuvini jadvalda ifodalashni ham bilishlari zarur. Uyda bajariladigan amaliy ishlar tabiiy ob'ektlar bilan mustaqil amaliy ish bajarishni talab etuvchi har xil topshiriqlar katta ahamiyatga ega. Uy vazifalari morfologik va fiziologik xarakterda bo'lishi mumkin. Morfologik xarakterdagи vazifalar gerbariy tayyorlash, gul qismlarini ajratish kabilalar darsda tegishli materialni o'rganilgandan so'ng, bilimlarni mustahkamlash uchun beriladi.

Fiziologik mazmundagi topshiriqlarni tajriba yoki kuzatish natijalaridan tegishli darslarda foydalanish uchun oldindan berish tavsiya etiladi. Dastlabki eksperimental ishlarni ma'lum muddatda qaysi darsda foydalanish uchun ularni o'quvchilarga topshirish vaqtini hisoblab chiqish zarur. Bunday uy vazifalari ko'proq botanikadan bo'lishi mumkin. Ularni bajarish uchun taxminan necha kun kerakligi quyida keltirilgan: gerbariy quritish uchun 7 kun, urug'ning har xil sharoitda unib chiqishi uchun 7 kun, ildizning o'sishini kuzatish uchun 10 kun, qalamcha va parxeshdan o'simlik o'stirish uchun 14 kun. Tajribalar natijasini o'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmasiga binoan tegishli darslarga olib keladilar. Tajribalar haqida ma'lumot beradilar. O'z tajribasini o'qituvchi bajarayotgan tajriba bilan taqqoslaysilar. Zoologiya bo'yicha amaliy ishlar, asosan, kuzatishlar bilan bog'liqdir. Masalan: qushlarning in qurishi, tuxum bosib yotishi, qaldirg'ochlarning bolalariga hasharotlar olib kelishi kabilardir.

Odam va uning salomatligi kursidan uy vazifalari amaliy yoki tadqiqiy mazmunda bo'lishi mumkin. Bularga uy sharoitida hayvonlarda shartli reflekslar hosil qilish kabilarni olish mumkin. SHuningdek, o'quvchilarning o'z-o'zini kuzatish ishlari darsning o'zida o'tkazilishi, boshqalari esa uyga vazifa qilib beriladi. Masalan, "Qon aylanish" mavzusini o'rganishda jismoniy va aqliy

**4th International Multidisciplinary Scientific Conference on
Ingenious Global Thoughts
Hosted from Boston, USA**

<https://conferencepublication.com>

June 30th 2021

mehnat turiga qarab puləsnинг o‘zgarishini o‘rganishni uyda bajarish, bajargan ishlarini grafik va sxema tarzida tasvirlash tavsiya etiladi. 9-11-sinflar biologiya kursidan ham tabiiy ob’ektlar bilan ishlash bo‘yicha har xil mustaqil topshiriqlar bo‘lishi mumkin. Bunday topshiriqlar organizmlarning xilma-xilligi, o‘zgaruvchanligi va moslanishlari, har xil ekologik omillarini organizmga ta’sirini o‘rganish yuzasidan bo‘lishi mumkin. Uyda o‘tkazilgan tajriba natijalarini, to‘plangan gerbariy va kolleksiyalar darslarda foydalaniladi.